



## KOGNITIV TILSHUNOSLIK, LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK VA PSIXOLINGVISTIKADA KONSEPTGA MUNOSABAT MASALASI

**Sharipova Ozoda Xolmurodovna**

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: Ozodaxon925@gmail.com*

*ORCID: 0009-0001-6107-6020*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14919640>

**Annotatsiya:** o'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan antroposentrik paradigma yangi asr avvalidanoq lingvistik tadqiqotlarda peshqadam sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari sifatida e'tirof qilingani holda sohaning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil yo'nalishlar sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Bu sohalar juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Mazkur maqolada ushbu yo'nalishlar uchun umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o'rganish obyekti – konsept haqida fikr yuritiladi. Konsept termini bugunga qadar ko'plab olimlar tomonidan izohlangan bo'lsa-da, turli manbalarda uning ta'rif, mazmuni, qamrov doirasi haqida tafovutli qarashlar keltiriladi. Ushbu tadqiqotda konsept doirasida tilshunos olimlarning qarashlari o'rganilib, ulardagi tafovutli masalalarga munosabat bildirilgan hamda umumiy xulosalar bayon etilgan. Bu jarayonda qiyoslash, sintezlash, induksiya, deduksiya, umumlashtirish va abstraksiyalash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, konsept.

**Abstract:** the anthropocentric paradigm, which took its first steps in the last quarter of the last century, became one of the leading fields in linguistic research from the beginning of the new century. Cognitive linguistics and linguoculturology are recognized as the leading directions of the anthropocentric paradigm, embodying the latest achievements of the field and increasingly strengthening their status as independent directions. These fields intersect with psycholinguistics at many points. This article discusses one of the main categories common to these directions, an important object of study - the concept. Although the term concept has been interpreted by many scientists, different sources give different opinions about its definition, content, and scope. In this study, within the framework of the concept, the views of linguists were studied, their reactions to different issues were expressed, and general conclusions were stated. Research methods such as comparison, synthesis, induction, deduction, generalization and abstraction were used in this process.

**Key words:** cognitive linguistics, linguoculturology, psycholinguistics, concept.

**Аннотация:** антропоцентрическая парадигма, сделавшая свои первые шаги в последней четверти прошлого века, с начала нового столетия стала одним из ведущих направлений лингвистических исследований. Когнитивная лингвистика и лингвокультурология признаны ведущими направлениями антропоцентрической парадигмы, воплощающими в себе новейшие достижения отрасли и все более укрепляющими свой статус как самостоятельные направления. Эти области пересекаются с психолингвистикой во многих точках. В данной статье рассматривается одна из основных категорий, общих для этих направлений, важный объект исследования – концепт. Хотя термин «концепт» трактуется многими учеными, в разных источниках высказываются разные мнения о его определении, содержании и сфере применения. В данном исследовании в рамках концепции были изучены взгляды лингвистов, высказаны их реакции на различные



вопросы, сформулированы общие выводы. В этом процессе использовались такие методы исследования, как сравнение, синтез, индукция, дедукция, обобщение и абстракция.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, лингвокультурология, психолингвистика, концепт.

## **Kirish**

*Konsept* terminini tilshunoslik bilan bir qatorda matematika, madaniyatshunoslik, mantiq, psixologiya, falsafa kabi turli xil sohalarda uchratish mumkin va ularning har birida bu tushunchaning o'z ma'no, vazifasi bor. Xususan, tilshunoslikda konsept umumiy holatda borliq haqidagi bilimlarni namoyon etish shakllaridan biri sifatida qo'llansa; psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik kabi tarmoq sohalarda unga berilgan ta'riflar va bildirilgan munosabatlar farqlanadi. Atama bir vaqtning o'zida bir necha sohalarda talqin qilingani sababli ham uning ko'p qirrali tabiati chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. Bu mavzudagi izchil ilmiy izlanishlarning boshlanishi ingliz olimlari J.Miller, N.Xomskiy, A. Nyuell, R.Jakendoff, G.Lakoflar nomi bilan bog'liq. Ular ma'ruzalarida, asarlarida konsept haqida keng to'xtalib o'tishlari va shu vaqtgacha sinonim sifatida qarab kelinayotgan tushuncha va konsept terminlarini farqlash borasida o'z qarashlarini ilgari surishlari natijasida bu mavzuga ilmiy jamoatchilikning e'tibori kuchaydi. Konsept termini dastavval faqat kognitologik doirada izohlangan. Kognitiv tadqiqotlarni yagona bir fan doirasida, yagona bir "soyabon" ostida biriktirish harakatlari natijasi o'laroq nashr qilina boshlangan "Cognitive Linguistics" (Kognitiv lingvistika) jurnali va "Cognitive Linguistics Research" (Kognitiv lingvistik tadqiqotlar) monografik seriyalarida ham asosiy mavzu konsept bo'lgan. Ilm-fan taraqqiyoti natijasi o'laroq lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi turli tarmoq sohalarga tatbiq qilina boshlangan *konsept* termini sohalararo alohidalik kasb etgan holda ta'riflana boshlandi. Natijada ushbu terminning ta'rif, mohiyati, qamrov doirasi kabi masalalarda olimlar o'rtasida munozarali qarashlar yuzaga kela boshladi. Bu munozaralar va tafovutli qarashlar ilm-fan olamida, ayniqsa, yosh olimlar uchun ko'plab muammolar, chalkashliklar tug'dirmoqda. Mazkur munozaralarga munosib yechim berish maqsadida o'zbek va jahon tilshunosligida konsept doirasida tadqiqot ilob brogan olimlarning ishlari o'rganib chiqildi va qiyoslash, sintezlash, induksiya, deduksiya, umumlashtirish va abstraksiyalash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan holda masalaga munosib yechim, terminga yakuniy ta'rif berildi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Konsept (lotincha "conceptus" – "tushuncha" degan ma'noni anglatadi) atamasi fanga dastlab o'rta asrlarda U.Gobbs, P.Abelyar, U.Okkam kabi faylasuflar tomonidan olib kirilgan. Ular konseptni narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va



ong tomonidan uning ichki foydalanishi uchun gavdalanirilgan, o'zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omil sifatida izohlaganlar. Lingvistik adabiyotlarda esa bu tushuncha XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshlagan. Mazkur atama ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi S.A.Askaldov-Alekseyev maqolasida qo'llangan. Biroq shunga qaramay 70-yillargacha ham u izohtalab mavzulardan biri sifatida alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

V.A. Maslova konsept tabiatining ko'p qirrali ekanligini hisobga olib, uni izohlashda dastavval voqelanishida zaruriy hisoblangan lingvistik, kognitiv, pragmatik, kulturologik, sotsiologik jihatlarlarga e'tibor qaratib, quyidagi ta'riflarni keltiradi (Маслова, 2008, 37-б.):

- 1) inson tajribasi minimal birliklarining ideal tasavvurida so'z orqali ifodalanib, maydon tuzilmasiga ega bo'lgan ifodasi;
- 2) bilimlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishning asosiy birligi;
- 3) o'zining dinamik chegarasi va muayyan funksiyalariga ega ekanligi;
- 4) ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uning assotsiativ maydoni asosida pragmatik jihatlar namoyon bo'lishi;
- 5) madaniyatning asosiy bo'g'ini.

Bu kabi konseptga turli tomonlama yondashuvni V.I.Karasik tadqiqolarida ham ko'rish mumkin. Uning fikricha, konsept, avvalo, tilga asoslanadi, ya'ni unda predmet, belgi, voqea-jarayonga oid xususiyatlar aks etadi. Ikkinchidan, konsept kognitiv-psixologik birlik bo'lib, bunda ma'no fragmentlari ssenariy, freym, geshtalt kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. So'nggi yondashuvga ko'ra esa konsept etik-estetik kategoriyalarning mahsuli sifatida deriktiv xususiyatga ega bo'lgan madaniy qadriyatlarning baholovchisi hisoblanadi (Карасик, 2009, 24-б).

Milliy lingvistik adabiyotlarimizda 1990-yillardan boshlab qo'llana boshlangan *konsept* terminining lug'aviy ma'nosi, ilmiy ta'rifi o'zbek tilshunoslari tomonidan ham bir necha ko'rinishda talqin qilingan. N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Mamatov, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva kabi olimlar bu borada turlicha qarashlarni bayon qilganlar.

Professor Sh. Safarov konsept mohiyatiga kognitiv jihatdan yondashib, uni "Bilish jarayonida hosil bo'lgan mental tuzilma", – deb ta'riflaydi, shuningdek, unda bir vaqtning o'zida milliy qarashlar ham namoyon bo'lib turishini ta'kidlab o'tadi: "Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Zero, matnda konseptuallashtirilgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo'lishi mumkin (Сафаров, 2008, 245-б.)".

Professor N.Mahmudovda ham xuddi shu singari talqinni ko'rishimiz mumkin "...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy





unsurdan tamoman xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozarali(Mahmudov, 2017, 60-b.)”.

D.Xudoyberganova ham konseptning, avvalo, kognitiv jarayon mahsuli ekanligini e'tirof qilib: “Konsept – mavhum tushuncha. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bu hodisani uning tildagi korrelyatlari orqali aniqlash mumkin”, – deb ta'kidlaydi. Shuningdek, olima uning psixologik, kulturologik xususiyatlardan ham xoli bo'lmagan ko'p qatlamli mental tuzilma ekanligiga ham e'tibor qaratadi: “Konsept ...o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etuvchi tuzilmadir. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi”. Mazkur qarashlarni takomillashtirib borib, olima konseptning sohalar kesimidagi quyidagi alohida-alohida ta'riflarini keltiradi:

**1. Kognitiv tilshunoslikda** – inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi.

**2. Lingvokulturologiyada** – mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi.

**3. Psixolingvistikada** – insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiyati qonuniyatlariga bo'ysunuvchi harakatchan perseptiv-kognitiv-affektiv tuzilma (Xudoyberganova, 2015, 25-6.).

## **NATIJALAR**

O'rganishlar natijasi sifatida konsept haqida quyidagi fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.


Konsept – anglangan aniq va mavhum, botiniy va zohiriy mavjudlik haqidagi ongda bilimlar kvanti. Konseptda insonning muayyan narsa yoki hodisaga salbiy, ijobiy va yoinki neytral munosabati aks etadi. Inson nimaniki eshitsu, ko'rsa, hidlasa, ta'tib ko'rsa, his qilsa yoki xayolidan kechirsa, agar bu unga tanish bo'lsa, darhol o'tmish hayoti davomida o'zini o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan shu bilan bog'liq bilimlari, tasavvurlari, tajribalari yodga keladi va ularning hammasi umumlashib mazkur tushunchaning “biogenetika”si – konseptni shakllantiradi.

Har bir shaxsning ongida o'zi yashab turgan dunyoda mavjudligi anglangan alohidalik haqida alohida-alohida kvant maydon – konseptual maydon mavjud va bu “maydondagi rikvizitlar” uning butun hayoti davomida boyib, mukammallashib boraveradi. Bu jarayonda unga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi (qarang: 1-rasm). Biroq bu mukammallashuvdagi hech bir bosqichni ideal yakuniy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Chunki konsept ummon kabi sho'ng'igan sari yangidan-yangi qirralarini namoyon qiluvchi tubsizlikdir. Shuningdek, uning yashovchanligi ham bir inson umri bilan yakunlanmaydi.



1-rasm.

*Konseptning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar*



Jamiyatda ikkita bir xil odam bo'lmaganidek, ikki insonda ayni bir tushuncha haqida bir xil konseptual maydon shakllangan bo'lishi ehtimoldan yiroq. Negaki, tarbiya, tajriba, bilim, ko'nikma, malaka va h.k.lardan kelib chiqqan holda dunyoga hamma o'z ko'zi bilan boqadi va uni o'zicha angelaydi. Shu tariqa shaxsiy bahoga asoslangan individual konsept, mavjudlilik va o'zidagi markaziy, ustun semalarning qaysi doirada takrorlanishiga ko'ra guruh (milliy) hamda barcha millat va xalqlar tomonidan umume'tirof qilinish asosida universal konseptlar shakllanadi. Bu jarayonda til konseptni ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida ong va borliq o'rtasida tarjimon vazifasini o'taydi. Hech narsa abadiy bir xilda saqlanib qolmagani kabi konsept ham doimo harakatda, o'zgarishda bo'ladi, vaqt o'tishi bilan u tashuvchi ma'no boyiydi, rivojlanadi, hatto ba'zilar nutqimizdan tushib qolishi ham mumkin. Bu jarayonda lisoniy qobiliyatga ega kishilik jamiyati konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.



## MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, mohiyat va qamrov borasida so'z ketganda olimlarning bir qismi konseptni qo'llanish sohalari kesimida alohida o'ziga xos xususiyatlar bilan izohlasalar, boshqa bir guruh olimlar konsept o'zida barcha sohalarga xos qarashlarni yaxlitlashtirgan, umumlashtirgan holda aks ettirishi borasidagi qarashlarini ilgari suradilar.

Biroq keltirib o'tganimiz bir-biridan shaklan farq qiluvchi bu ta'riflar, bizning nazdimizda, konseptga leksema maqomida lingvistik doirada omonimlik sifatini berishga asos bo'lmay, balki yagona mohiyatga turli jihatdan yondashuv natijasidir. Konseptual tahlil jarayonida tahlil markaziga qaysi usulni qo'yishdan qat'i nazar biri boshqasini to'ldirib turishini inkor qilib bo'lmaydi. Faqat bunda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihat – mohiyatida bir tushuncha ustunlik qilganda ikkinchisi susayadi. Boshqacha qilib aytganda: “Konseptning keng ko'lamli va ko'p sathli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, tadqiqotning obyektidan kelib chiqib, muayyan konseptning ustuvor yarusi belgilanishi mumkin, ya'ni qaysidir tadqiqot uchun masalaning psixologik yoki psixolingvistik sathi ustuvor bo'lsa, boshqasi uchun etimologik, etnografik, yana birlari uchun esa, madaniy, lingvokulturologik jihatlari diqqat markazida bo'lishi mumkin (Красавский, 2000, 78-б.).

Ma'lumki, konsept tadqiqot obyektini sifatida alohidalik kasb qilgan holda ta'riflanayotgan fanlarning barchasi fanlar kesishmasida shakllangan tarmoq sohalari bo'lib, fanlar integratsiyasida biror obyektning o'rganish obyekt haqidagi tasavvurni kengaytirib yuboradi. Yana shu narsa ayonki, obyektning qamrov chegarasini aniq belgilamay, har tomondan tadqiq qilish turli chalkashliklarga olib keladi va o'rganilayotgan mavzu mohiyati to'la ochilmay qolish ehtimoli ortadi. Shuningdek, fan obyektini baholashda ham muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu, birinchidan, tilshunosni asosiy obyekt – tildan chalg'itadi; ikkinchidan, uning tadqiqida diletantlik belgilari yuzaga kelishiga olib keladi (Қосимова, 2021, 26-б.). Shu sababli ham garchi matn yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiqot obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazaridan yondashishni taqozo etsa-da, konseptual doiradagi tadqiqotlarda tadqiqotchi konsept butun borliq (barcha soha) bilimlarining tafakkurdagi bo'linmas butunligi ekanligini e'tirof qilgan holda faqat uning bir qirrasini tadqiqot obyektini sifatida belgilashi va har bir yo'nalish vakili tanlagan obyektiga asosan o'z fani nuqtayi nazaridan yondashishi maqsadga muvofiq.

O'rganishlar natijasi sifatida shuni aytib o'tish kerakki, professor N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida ta'kidlaganidek konsept termini eng ko'p definisiyaga ega, biroq bu va bu bilan bog'liq tushunchalar hanuzgacha yakdil umumiy izoh bilan talqin qilinmagan. Buning sababi esa olimlar tomonidan quyidagicha mukammal





asoslab berilgan: “Ushbu savollarga hozircha to‘liq javob topilganicha yo‘q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug‘ilishining, albatta, sabablari bor. Dastavval, *konsept* tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligini, uning zamiridagi “mental struktura” hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmazlik lozim (Сафаров, 2010, 185–188-б.)”. Konseptning yagona tavsifi mavjud emasligi uning ijtimoiy, psixologik, madaniy jihatdan murakkab, keng qamrovli tuzilma ekanligi bilan xarakterlanadi; konseptlar negizida muayyan madaniyat uchungina xos bo‘lgan turli assotsiatsiyalar, emotsiyalar, subyektiv baho, milliy obraz va konnotatsiyalar yotadi. Konseptning ko‘p qirrali ekanligi yana shu bilan izohlanadiki, uning maydoni bir vaqtning o‘zida ham ratsional, ham emotsional, aniq va mavhum, universal va etnik, umummilliy va shaxsga oid tushunchalarni qamrab oladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, konsept – ma’lum bir til birligi mohiyatiga singdirilgan tasvir, tushuncha, bilim, tajriba, gipotezalar umumlashmasidir. Konsept ko‘p qirrali, integrativ hodisa bo‘lib, unda bir vaqtning o‘zida logik – lingvistik – gnoseologik darajalar birlashib, tabiat va jamiyatda mavjudligi anglangan muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat haqida umumlashma obraz, xulosaviy baho belgilanadi. Konsept o‘zida milliy urf-odatlar, hayotiy tajriba, obraz, qadriyatlar, milliy an’ana, din, ideologiya, folklor kabi qator omillar va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqa natijasini aks ettiradi.

Konsept har bir shaxs, har bir jamiyat uchun uchun umumiy, ayni bir vaqtda xususiy hodisa hamdir. U anglatgan mazmun-mohiyat hayotiy bilim, tajribalar asosida boyib, sayqallanib boradi. Tajriba va dunyoqarash boyigan sari konseptning axborot tashish mazmuni doirasi ham kengayib boradi va shu orqali konsept o‘zini har tomonlama namoyon eta oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Jackendoff R. What is a Concept, that a Person May Grasp It? Mind & language. – 1989. – Т. 4. – №. 1-2. – P. 68-102.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 20.
3. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. –М.: Флинта: Наука, 2006. – С.37
4. Карасик В.И. Языковые ключи. – М.: Гнозис, 2009. – С.24.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах. Сангзор, 2006. 21-bet.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т., 2008. Б. 245
7. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. –Т.: Mumtoz so‘z. 2017. 60-bet.
8. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.13.



9. Худойберганава Д. Лингвокультуролик терминларнинг қисқача изоҳли луғати. –Т.:Turon zamin ziyo, 2015. Б. 25.
10. Красавский Н.А. Концепт “Zorn” в пословично-поговорочном фонде немецкого языка. // Теоретическая и прикладная лингвистика. Выпуск 2. Язык и социальная среда. – Воронеж. Изд-во ВГТУ, 2000. – С.78
11. Қосимова М. Ўзбек ва инглиз тилларида бахтлилик ва бахтсизлик концептуал бинар оппозицияси. Филология фанлари бўйича фалсафа док. (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Андижон. 2021. –В. 26
12. Сафаров Ш. «Концепт» ҳодисаси ҳақида//Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари).–Самарқанд, 2010. –Б.185-188

